

Murojaatnomada belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha yig'ilish o'tkazildi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti Shavkat Ayupov rahbarligida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini Fanlar akademiyasi tizimida ta'minlash masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda Vazirlar Mahkamasi vakillari, FA vitse-prezidentlari, mintaqaviy bo'limlar raislari, Boshqaruv apparati xodimlari, shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlari rahbarlari hamda xodimlari ishtirok etdilar.

Tadbir davomida Prezident Murojaatnomasida ilmiy sohani rivojlantirish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ilm-fanni iqtisodiyot tarmoqlari bilan uzviy bog'lashga qaratilgan vazifalar atroficha muhokama qilindi.





Shuningdek, ilm-fan natijalarini tijorlashtirish, yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish hamda ilmiy tashkilotlar faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab olindi.

Yig'ilish yakunida Fanlar akademiyasi tizimida Murojaatnomada belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha mas'ul rahbarlarga tegishli topshiriqlar berildi hamda ushbu vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish yuzasidan qat'iy nazorat o'rnatilishi ta'kidlandi.